



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2023
3-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 3-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
профессор **Д.Х.Асланова**

Масъул котиб:
профессор **М.Қ.Пардаев**

Муҳаррирлар:
Ф.А.Сафаров
Ш.З.Ўрозов

Техник муҳаррир:
А.Н.Холиқулов

Корректор:
С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
Ҳ.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Таҳририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар
бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статис-
тика қўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ каф.мудир, профессор, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ Самарқанд филиали директори,
иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Р.Болтабаев – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва
спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

Р.Х.Эргашев – ҚарМШИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ каф. мудири, и.ф.д., профессор

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори в.б., и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ кафедра мудири, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ декани, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ доценти, и.ф.д.

Шермухаммад Бекмурод ўғли Омонов Хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шерикчилигининг ривожланиш хусусиятлари ва тамойиллари	79
Mohira Asqarboy qizi Umurova Хизмат ko'rsatish tarmoqlarining iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda rivojlantirish istiqbollari	83
Ислон Исмоилович Эргашев Хизмат кўрсатиш корхоналари инвестицион жозибадорлигини баҳолашнинг хусусиятлари	86
Jahongir Aktamovich Haydarov Transport xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish	91
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Илёс Султанович Абдуллаев, Шоҳижаҳон Худоёр ўғли Мухитдинов Минтақа туризмида соҳа корхоналарининг бошқариш сегментининг нисбий талаб-таклиф модели	97
Dilmurod Abdullayevich Nasimov, Mohinur Ravshanbekovna Maxmudova Turizm sohasini barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	102
Ruxshona Shavkatovna Rofeyeva Samarqand shahri turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yashil zonalar va bog'larning o'rni	105
Shohista Bobobekovna Toyirova Ekoturizm-global ekologik inqirozga qarshi innovatsion yechim	109
Дилшод Мураткулович Абдураимов Туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятнинг ривожланиш хусусиятлари	113
Умиджон Рахимович Матякубов, Расулбек Кочкарбай ўғли Исаков Хива ва Боғот туманларида туризмни ривожлантириш имкониятларидан самарали фойдаланиш йўллари	118
Дониёр Журакулович Абдуразаков Кишлоқ туристик ресурсларини таснифлаш ва бошқаришнинг амалий масалалари таҳлили	122
Dilrabo Shirinboyevna Mardonova Mamlakatimizda mehmonxona biznesining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va prognozlash	126
Амриддин Ҳамдам ўғли Ҳамдамов Туризм соҳасида юқори сифатли хизмат кўрсатиш учун рақамли технологиялардан фойдаланишни баҳолашнинг услубий асослари	131
Зебинисо Бахтиёровна Навруз-зода “КРП” воситасида муқаддас жойларнинг зиёрат кластербоплик даражасини баҳолаш	135
Сирожиддин Шерали ўғли Халилов Миллий туризм тармоғида рақобат муҳити ва унинг таркибий элементлари	140
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Гулнора Мардиевна Шадиева, Шухрат Облокулович Кувандиқов Миллий иқтисодиётда оилавий тадбиркорликнинг ўзига хос функциялари	145
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Raxmatillo Mirolimovich Egamov, Sherzod Norboyevich Jumanov, Alisher Zokirovich Saydirasulov Innovatsion tadbirlar asosida qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun marketing tadqiqotlarini o'tkazish usullari	149

Dilrabo Shirinboyevna Mardonova – “Ipak yo‘li” xalqaro Turizm va madaniy meros universiteti tayanch doktranti

MAMLAKATIMIZDA MEHMONXONA BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizdagi mehmonxonalar, xostellarlarning soni hududlar miqyosidagi ulushi keltirilgan. Mavjud ma’lumotlar asosida, mehmonxonalar soni kelgusi yillar uchun prognoz qilingan. Bundan tashqari maqolada mehmonxona biznesi rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar alohida ta’kidlangan. Hamda, xulosa sifatida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mehmonxona biznesi, tendensiya, prognozlash, samaradorlik, reklama xizmati, mehmonxona sanoati, xalqaro zanjir, sayyoh, raqobat, butik mehmonxonalar, xostellar, mehmon uylari.

Kirish. O‘zbekistonda turizm va mehmonxona biznesiga bo‘lgan e’tibor kun sayin oshib bormoqda. Buni yurtimizda olib borilayotgan davlat siyosati, Prezident Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining Qarorlari misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2016-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861 sonli Farmoni¹, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.06.2017-yildagi “Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 355-sonli Qarori², 07.08.2018-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 631-son qarori³, 14.08.2018-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Mehmonxona sohasiga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 661-son Qarori⁴, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 954-son Qarori⁵ va bir qator hujjatlarni keltirish mumkin.

Mehmonxona biznesini rivojlantirish maqsadida, xalqaro standartlarga javob beradigan talab va xizmatlarni amalga oshirish uchun chet eldan sarmoyalar jalb qilish ham katta ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda mehmonxona biznesining asosiy yo‘nalishlaridan biri xalqaro mehmonxona tarmoqlarining o‘sishi hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonga Hilton, Hyatt, Marriott kabi xalqaro mehmonxona brendlaridan katta miqdorda sarmoyalar kiritildi. Ushbu xalqaro sarmoyadorlarning mavjudligi sayyohlar uchun keng turdagi tanlovni yaratdi, mehmonxonalar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirdi va xizmatlar sifatini oshirdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm sohasi va uning tarkibida mehmonxona xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida jahon va mamlakatimiz olimlari diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, mazkur muammoning ilmiy-nazariy va metodologik hamda amaliy muammolari xorijlik olimlardan F.Kotler, Dj.Bouen, Dj.Meykens, Dj.Uoker, L.F.Xodorkov, Yu.F.Volkov, A.D. Chudnovskiy, N.M.Kuldoshina, A.Braymer, A.L.Lesnik, I.P.Matsitskiy, A.V.Chernishev, A.B.Kosolapov, V.A.Kvartalnov, M.V.Yakimenko, A.E.Saak, Dj.A.Michelli, L.P.Shmatko, L.V.Jolobova, G.I.Lyashko, D.S.Ushakov, V.G.Fedtsov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan⁶.

¹ O‘R QQT, 2016-yil, 49-son, 558-modda.

² O‘R QQT, 2017-yil, 23-son, 477-modda

³ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018-y., 09/18/631/1638-son

⁴ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.08.2018-yil, 09/18/661/1763-son

⁵ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.11.2018-y., 09/18/954/2225-son

⁶ Kotler F., Bouen Dj., Meykens Dj. Marketing. Gostepriimstvo i turizm. / Per. s angl. – M.: YuNITI, 1998., Uoker Dj. Vvedenie v gostepriimstvo. Ucheb. Posobie / Per. s angl. – M.: YuNITI, 1999., Xodorkov L.F. Mirovye gostinichnoye xozyaystvo. – M.: 1991., Volkov Yu.F. Gostinichnyy i turisticheskiy biznes. – Rostov n/D: Feniks, 2009. – 637 s., Turizm i gostinichnoye xozyaystvo / Pod red. A.D. Chudnovskogo. – M.: Eksmo, 2000., Kuldoshina N.M. Ekonomika i finansy gostinichnogo biznesa. – M.: MATGR, 2000., Braymer A. Osnovy upravleniya predpriyatiyami i organizatsiyami industrii gostepriimstvo. – M.: 1994, Organizatsiya i upravlenie gostinichnym biznesom. / Pod red. A.L.Lesnika, I.P.Matsiskogo, A.V.Chernisheva – M.: 2000, Saak A.E., Yakimenko M.V. Meneyment v industrii gostepriimstva (gostinisy i restorany). – SPb.: Piter, 2007. – 432 s., Kosolapov A.B. Teoriya i praktika ekologicheskogo turizma. – M.: 2005., Kvartalnov V.A. Teoriya i praktika turizma. – M.: Sovetskiy sport, 2004., Michelli Dj.A.


Mamlakatimizda turizm sohasi, uning tarkibiy qismi bo‘lgan mehmonxona xo‘jaligi muammolarini tadqiq qilish bilan I.S.Tuxliyev, M.K.Pardayev, T.Abdullayeva, M.T.Aliyeva, X.M.Mamatkulov, R.Haitbayev, D.X.Aslanova, A.Toksanov, A.S.Soliyev, B.Ruzmetov, A.A.Eshstayev, B.Sh.Safarov, M.Alimova, A.N.Xalikulov kabi iqtisodchi olimlar shug‘ullanmoqdalar .

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda mehmonxona va joylashtirish vositalari fondi o‘shish dinamikasiga ta‘sir qiluvchi omillar, sohada sifatli xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida qiyosiy tahlil qilish, O‘zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish va tahlil qilish orqali olingan ma‘lumotlar asosida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yurtimizda mehmonxonalar soni va ularning rivojlanish tendensiyalari haqida so‘z yuritishdan oldin ishning nazariy masalalariga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda “mehmonxona,” “mehmonxona biznesi”, “xostel”, “butik mehmonxonalar” kabi atamalarga izoh berib o‘tish joiz deb hisobladik. *Mehmonxona*- hotel- 1) o‘z “mahsuloti” sifatida xizmatlar majmuini ishlab chiqaradigan va bozorda taqdim etadigan, asosiy xizmatlari joylashtirish va ovqatlanirish bo‘lgan tijorat korxonasi; 2) xizmatlarni ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan mulkiy majmua (bino, inshoot, qurilma va boshqa mol-mulkning bir qismi)¹. *Mehmonxona biznesi*- hotel business – tadbirkorlik faoliyatining bir ko‘rinishi, mehmondo‘stlik sanoatini rivojlantirish, turist va sayohatchilar ehtiyojini ta‘minlash, maishiy xizmat va bo‘sh vaqtni samarali o‘tkazish haqidagi muammolarni hal qiladi². *Xostel* – hostel – o‘zlarining ta‘tillarini imkon qadar kam xarajat asosida o‘tkazishni istovchi turistlar to‘xtab qolishlari mumkin bo‘lgan mehmonxona turi. Xosteldagi nomerlar arzon bo‘lib, odatda er-xotinlar uchun ikki kishilik krovat va shkaflar bilan jihozlangan katta xonalar beriladi. Bunday xonalarda 12-20 kishigacha yashaydi. Nomerda qanchalik kam o‘rin bo‘lsa shuncha qimmat bo‘ladi³. *Butik mehmonxonalar* – hotel boutique – dizayni va xizmati bilan farq qiluvchi kichik mehmonxonalar. Butik mehmonxonalar odatda ichki makonga ega qimmat mehmonxonalar hisoblanadi. Butik mehmonxonalar odatda “dizayn mehmonxonalar” deb ataladi.

Turizm O‘zbekiston hukumati uchun ustuvor yo‘nalishga aylangani bois, u o‘quv markazlarini tashkil etish va mehmonxona jihozlarini modernizatsiya qilish uchun moliyaviy yordam ko‘rsatish kabi mehmonxona sanoati standartlarini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

1-rasm. Joylashtirish vositalari sonining yillar kesimida oshishi.



Rits-Carlton: zolotoy standart gostinichnogo biznesa novogo tsysyachaletiya / Djozef Michelli: per. s angl. V.S.Ivachenko. – M.: Eksmo, 2009. – 320 s., Turizm i gostinichnoe xozyaystvo / Pod red. L.P.Shatko. – Rostov n/D: Feniks; Izdatelskiy sentr «MarT», 2010. – 352 s., Fedsov V.G. Kultura gostinichno-turistskogo servisa. – Rostov n/D: Feniks, 2008. 503 s., WWW.rej.ru WWW.hrs.ru., WWW.reksoft.ru., WWW.HotelConcultingGroup.ru, WWW.allstarshilton.com.

¹ I.S.Tuxliyev, M.E.Po‘latov, A.Sh.Berdimurodov. Turizm atamalarining izohli lug‘ati, Samarqand 2021-y., 86-bet.


² O‘sha yerda 87-bet

³ I.S.Tuxliyev, M.E.Po‘latov, A.Sh.Berdimurodov. Turizm atamalarining izohli lug‘ati, Samarqand 2021-y., 190-bet.


So‘nggi yillarda sayohatchilarga yanada o‘ziga xos va o‘ziga mos tajribani taklif etuvchi butik mehmonxonalar va uy-joylar tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Ushbu turdagi joylashtirish vositalari ulkan tajriba, mahalliy taom va mahalliy madaniyatni chuqurroq tushunishga intiladigan sayyohlar orasida tobora ommalashib bormoqda.

O‘zbekistonda mehmonxona, joylashtirish vositalari fondi tahlil qilinganda, 2022-yilda 1209 ta yangi joylashtirish vositalari (29817 ta o‘rin), shundan, 149 ta mehmonxonalar, 254 ta xostellar, 734 ta oilaviy mehmon uylari, 13 ta sanatoriy va sog‘lomlashtirish obyektlari, 59 ta boshqa joylashtirish vositalari tashkil etilib, ularning jami soni 5029 taga, o‘rinlar soni 124,2 mingtani tashkil qilgan.¹

2016-yilda jami joylashtirish fondi 609 tani tashkil qilgan bo‘lib xonalar soni 1645 tani, o‘rinlar soni 31950 tani tashkil qilgan. 2022-yilda jami joylashtirish fondi 5029 tani tashkil qilgan bo‘lib xonalar soni 55277 tani, o‘rinlar soni 124191 tani tashkil qildi. Ya‘ni, joylashtirish vositalari fondi 825%ga, xonalar 335% hamda o‘rinlar soni 388% oshdi².



Yuqorida 2-rasmda joylashtirish vositalarining hududlar kesimida joriy davr holati keltirilgan. Bundan shuni ko‘rish mumkinki, turizm sohasi aynan joylashtirish vositalari O‘zbekiston bo‘ylab notekis taqsimlangan. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridan tashqari Andijon, Navoiy, Surxondaryo, Farg‘ona, Qo‘qon shaharlarida ham turizmni faol rivojlantirish mumkin. Ayniqsa Farg‘ona vodiysi o‘zining serhosil bog‘lari, paxta dalalari, ipakchiligi, tog‘ bilan o‘ralganligi va sharqona bozorlari bilan turistlarda katta qiziqish uyg‘otishi mumkin. Ipakchilik markazi hisoblangan Marg‘ilon shahrida "Ipak olami" marshrutini ishlab chiqish mumkin. Unda ipak qurtidan boshlab to‘quvchilik jarayonlarigacha bo‘lgan bosqichlarni hikoya qilib berish, ipak gazlamalari va kiyimlarni ishlab chiqarishning madaniy hamda ishlab chiqarish tarixini yoritib berish mumkin bo‘ladi.




3-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga kiruvchi turistlar dinamikasi.

¹ Turizm va madaniy meros vazirligi ma‘lumotlari.

² Turizm va madaniy meros vazirligi ma‘lumotlari asosida ilmiy tadqiqotchi tomonidan mustaqil tayyorlandi.

3-rasmda 2019-yilgacha kiruvchi turizm oqimi jadal o'sib borishi ko'rsatilgan va 2020-yilga kelib esa, koronavirus pandemiyasi sababli 2019-yilga nisbatan 76% ga kamaygan. Respublikamizda so'nggi yillarda turizm sohasiga berilayotgan e'tibor natijasida 2021-yilda yurtimizga 119,0 ming nafar, 2022-yilda esa, 1204,2 ming nafar turist tashrif buyurdi¹.


O'zbekiston respublikasida mehmonxonalar sonini prognozlash uchun avvalo, mehmonxonalar sonining 20 yillik dinamikasi ko'rib chiqildi (4-rasm)²



4-rasm. O'zbekiston Respublikasida mehmonxonalar sonining o'zgarish dinamikasi.

4-rasmdan shuni ko'rish mumkinki, 2017-yildan boshlab mehmonxonalar soni jadal sur'atlar bilan ortib borgan. Ushbu grafikdan mehmonxonalar dinamikasi biroz murakkab egri chiziq hosil qilganligi sababli, Excel dasturida mavjud trend funksiyalaridan foydalangan holda mehmonxonalar sonini prognoz qiluvchi eng yaxshi trendni R kvadrat qiymatini solishtirish orqali aniqlab olindi. Dastlab mehmonxonalar soni dinamikasini Y_t deb belgilab olindi va quyidagi holat hosil bo'ldi. (5-rasm).³

5-rasmdan shuni ko'rish mumkinki, chiziqli trend Y_t o'zgarishini aniq tushuntirmaydi. Shu bois mehmonxonalar sonini prognozlashning kvadratik tenglamali trendi ishlab chiqildi. (6-rasm).⁴



5-rasm. Mehmonxonalar sonini prognozlashning chiziqli trendi

¹ Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari.

² Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari.


³ Qoziboyev Bahodir Azzamboy o'g'li. Hududlarda inkluziv turizmni samarali rivojlantirishning istiqbollari, Samarqand 2022-yil.

⁴ O'sha yerda.

Kvadratik tenglama sifatida quyidagi kvadrat tenglama tanlab olindi:

$$Y_t = 3,91t^2 - 15687,16t + 15737230,16, \text{ bu yerda } t\text{-yillar}$$

Aniqroq qilib aytganda, parabola tenglamasi olindi, bu trend Y_t ning ayrim real qiymatlarini prognoz qilishda xatoliklarga yo‘l qo‘ysa-da, kelajakdagi qiymatlarini prognoz qilishda eng maqbul yechim deb hisoblandi. Y_t ning absolyut prognoz qiymatlari 1-jadvalda aks ettirilgan.¹



6-rasm. Mehmonxonalar sonini prognozlashning kvadratik tenglamali trendi

1-jadval

Kvadratik trend asosida Y_t ning prognoz qiymatlari

2021	2022	2023	2024	2025	2026	2027
1080	1198	1324	1458	1600	1750	1907

1-jadval ma’lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, mehmonxonalar soni kelajakda o‘sib borish tendensiyasini ko‘rsatmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytilish mumkinki, infratuzilma va turizmni rivojlantirishga davlat investitsiyalarining ortishi hisobiga O‘zbekistonda mehmonxona biznesi ijobiy tendensiyani ko‘rsatmoqda. Bozorga kirib kelayotgan xalqaro mehmonxonalar tarmog‘i soni oshmoqda, bu sayyohlarga ko‘proq tanlash imkoniyatini beradi va xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi. Buning natijasida mehmonxonalar va xizmatlar sifati ham yaxshilanib bormoqda, butik mehmonxonalar va uy-joylar kabi noyob va moslashtirilgan turar joylarning ko‘payishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Shunga qaramay, O‘zbekistonning turizm nisbatan yaxshi rivojlanmagan hududlariga ko‘proq sayyohlarni jalb qilish va bu hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun turizmni rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Ushbu ijobiy tendensiyani saqlab qolish uchun bir nechta takliflar ishlab chiqildi:

- O‘zbekistonda infratuzilmani rivojlantirish va turizmni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish;
- O‘zbekistonga sarmoya kiritish uchun ko‘proq xalqaro mehmonxona tarmoqlarini rag‘batlantirish;
- Xizmat ko‘rsatish sifatini saqlab qolish uchun mehmonxona xodimlarining malakasini oshirish;
- O‘zbekistonning turizm yaxshi rivojlanmagan hududlarida turizmni rivojlantirish va bu hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishni rag‘batlantirish;
- Raqobatbardosh bo‘lish va iste‘molchilar talablarini qondirish uchun mehmonxona sanoatidagi o‘zgaruvchan tendensiyalarni doimiy ravishda kuzatib borish va moslashtirish;
- Mas’uliyatli turizmni rivojlantirish va O‘zbekistonning tabiiy va madaniy resurslarini himoya

¹ O‘sha yerda

qilish uchun barqaror turizm amaliyotiga e'tibor qaratish. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali O'zbekistondagi mehmonxona biznesi o'sishda davom etishi va mamlakatda turizm, iqtisodiyotni rivojlantirish va ish o'rinlari yaratish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 18 июлдаги «Туризм тўғрисида» ги Қонуни, № ЎРҚ-549.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi “O'zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqarolarning kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3836-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.06.2017-yildagi “Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartbi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida ” 355-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi 631-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mehmonxona sohasiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 661-son qarori,
7. Eshtayev A. “Turizm sohasida mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishning marketing strategiyasi” “O'zbekiston mehnat salohiyati: hozirgi holati va undan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2011-yil 20-dekabr
8. I.S.Tuxliyev, M.E.Po'latov, A.Sh.Berdimurodov. Turizm atamalarining izohli lug'ati, Samarqand 2021-y
9. X.M.Mamatqulov Mehmonxona va turistik komplekslarda xizmatlarni tashkil etish, Samarqand-2011y.

<p>Д.Мардонова</p> <p>Анализ тенденций развития гостиничного бизнеса в нашей стране</p> <p>Аннотация: В данной статье представлено количество гостиниц в нашей стране, их удельный вес по регионам. На основании имеющихся данных спрогнозировано количество гостиниц на ближайшие годы. Кроме того, в статье выделены факторы, влияющие на развитие гостиничного бизнеса. Также в качестве заключения были разработаны научно-теоретические и практические рекомендации.</p> <p>Ключевые слова: гостиничный бизнес, тренд, прогнозирование, эффективность, рекламный сервис, гостиничная индустрия, международная сеть, турист, конкуренция, бутик-отели, хостелы.</p>	<p>D.Mardonova</p> <p>Analysis of trends in the development of the hotel business in our country</p> <p>Abstract: This article presents the number of hotels in our country, the share of hotels by regions. Based on the available data, the number of hotels is predicted for the coming years. In addition, the factors affecting the development of the hotel business are highlighted in the article. Also, as a conclusion, scientific-theoretical and practical recommendations were developed.</p> <p>Keywords: hotel business, trend, forecasting, efficiency, advertising service, hotel industry, international chain, tourist, competition, boutique hotels, hostels.</p>
---	---

Амридин Ҳамдам ўғли Ҳамдамов – “Ипак йўли” туризм ва маданий мерос халқаро университети таянч докторанти

ТУРИЗМ СОҲАСИДА ЮҚОРИ СИФАТЛИ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ УЧУН РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ БАҲОЛАШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ

<p>Аннотация. Ушбу мақолада туризм соҳасида юқори сифатли хизмат кўрсатишда рақамли технологиялардан самарали фойдаланиш ва аҳамияти ёритиб берилган. Бундан ташқари рақамли технологиялар билан боғлиқ хизматлар самарадорлигини баҳолашнинг услубий асослари асослаб берилган.</p> <p>Калит сўзлар. Туризм, рақамли технология, юқори сифат, рақамли иқтисодиёт, туристик маҳсулот, хизмат кўрсатиш, виртуал, онлайн.</p>

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

07.09.2023 йилда теришга берилди. 22.09.2023 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,6. Адади 100 нусха. Буюртма № 0074А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023